


Sharq mamlakatlari tarixi tizimida

MARKAZIY OSNO VA O'ZBEKISTON TARIKI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

O'ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI

O'ZBEKISTON XOTIN-QIZLAR "OLIMA" UYUSHMASI

**SHARQ MAMLAKATLARI TARIXI TIZIMIDA MARKAZIY OSIYO VA
O'ZBEKISTON TARIXI**

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

Toshkent-2025

UO'K: 94(543)(575.1)

KBK: 63.3 (543)(5Uzb)

Sh-53

Professor Sanobar Shadmanovaning 60 yilligiga bag‘ishlangan “Sharq mamlakatlari tarixi tizimida Markaziy Osiyo va O‘zbekiston tarixi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDSHU nashriyoti, 2025. – 607 bet.

Mas’ul muharrir:
t.f.d., prof. D.B.Sayfullayev

Taqrizchilar:
Tarix fanlari doktori, prof. N.E.Karimova
Tarix fanlari doktori, prof. I.Xaydarov

Tahrir hay’ati:

Tuychi Axmedov, Nargizaxon Alimova, Lutfiya Qodirova, Mashhura Temirova, Ozodbek Rajabov, Azizbek Badalov, Laziza Ro’ziyeva, Madina Samiyeva, Abduvaxob Egamberdiyev

Ushbu to‘plam professor, tarix fanlari doktori Sanobar Shadmanovaning 60 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan konferensiya maqolalaridan iborat. Mazkur maqolalar Sharq mamlakatlari, Markaziy Osiyo va O‘zbekiston tarixining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotini ochib berishga xizmat qiladi.

Mazkur nashr ta’lim tizimidagi professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va tarix faniga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Ilmiy kengashining 2025-yil 29-martdagi 8-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-8059-4-3

© Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti, 2025-yil

5. Ўзбекистон тарихига оид манба ва тадқиқотлар (XIX – XX аср бошлари) /
Масъул мухаррир Д.Х. Зияева. – Т., 2022. – Б. 46-47.

6. Аҳмад Доңиш. Рисола ёхуд мангитлар хонадони салтанатининг қисқача
тарихи / Таржима, изоҳлар ва кириш сўзи муаллифи Қиёмиддин Йўлдошев. – Т.,
2014. – Б. 73.

7. Трактат Ахмада Доңиша “История мангитской династии” / Перевод,
предисловие и примечания И.А. Наджафовой. – Душанбе: Доңиш, 1967. – С. 96-97;
Аҳмад Доңиш. Рисола ёхуд мангитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. – Б.
106-107.

8. Мирзә ‘Абд ал-‘АЗІМ САМІЙ. Та‘ріх-и Салатін-и Мангйттайя / Перевод и
примечания Л.М. Епифановой. – Москва, 1962. – С. 122.

9. Абдурауф Фитрат. Ҳинд сайёхининг қиссаси Ҳинд сайёхининг қиссаси /
Тожик тилидан таржимон Ҳасан Кудратуллаев // Шарқ юлдизи. 1991. – Б. 13.

10. Садриддин Айний. Асарлар. 7-т. Эсадаликлар. IV қисм / Тожикчадан А.
Ҳакимов таржимаси. Тошкент, 1966. – Б. 92-93; 173.

11. Садриддин Айний. Асарлар. 5-т. Эсадаликлар. I-II қисм / Мухаррир
Комилов Р. –Т., 1965. – Б. 161-162.

12. Мухаммад Насриддин ал-Ханафи ал-Хасани ал-Бухари. Тухфат аз-заирин /
Перевод, предисловие, комментарии – Х. Тураев. – Т., 2003. – 31 с.

13. Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи нофейи / Тожик тилидан таржима,
сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Шодмон Воҳидов, Зоир Чориев. – Т.: Академия,
2001. – 122 б.

14. Садр Зиё. Зикри асомийи мадориси дохилайи Бухоройи Шариф. ЎзРФА
ШИ кўллётмалар фонди, инв. № 2193.

15. Мухаммад Насриддин ал-Ханафи ал-Хасани ал-Бухари. Тухфат аз-заирин /
Перевод, предисловие, комментарии – Х. Тураев. – Т., 2003. – С. 94.

TARIXIY HUJJATLARNI MANBA SIFATIDA O'RGANISHNING AYRIM NAZARIY MASALALARI

Mirzayev Nasriddin Muxritdinovich,
O'zbekiston Milliy arxivi
Katta ilmiy xodimi, t.f.f.d. (PhD)
nosir86@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy hujjatlarni manba sifatida o'rganishning
ayrim nazariy masalalari tahlil qilingan bo'lib, unda Markaziy Osiyo tarixini yorituvchi
yozma manbalarning turi, ular ichida tarixiy hujjatlarning o'rni, ahamiyati va ularni ilmiy
tadqiq qilishning nazariy masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar tahlili va ilmiy xulosalar
berilgan. Ushbu yo'nalishda so'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlili
natijasida bu soharing borgan sari dolzarbli oshayotgani, yangi yozma manbalar
turining kashf qilinishi va o'rgnilmagan tarixiy hujjatlarning istiqbolli masalalari ochib
berilgan. Muallif bevosita tarixiy hujjatlari turidan biri bo'lgan qozilik hujjatlarini misol
sifatida keltirib tahlil qilgan.

Kalit so‘zlar: Arxiv, tarixiy hujjat, manbalarining nazariy masalalari, qozilik hujjat, rasmiy yozma manbalar.

Abstract: This article analyzes certain theoretical issues related to the study of historical documents as sources. It explores various types of written sources that shed light on the history of Central Asia, the place and significance of historical documents among them, and studies devoted to the theoretical aspects of their academic examination, along with scientific conclusions. Based on an analysis of recent research in this field, the growing relevance of the topic is highlighted, along with the discovery of new types of written sources and promising areas concerning previously unstudied historical documents. As an example, the author considers and analyzes qadi documents as one type of historical source.

Keywords: Archive, historical document, theoretical issues of source studies, qadi documents, official written sources.

Kirish. Markaziy Osiyo xalqlari tarixinining o‘ziga xosliklaridan biri uning tarixi yozilgan yoki qayd etilgan ma’lumot tashuvchi manbalar turlarining xilma-xilligi bilan diqqatga sazavordir. Zero, bir necha ming yillik tarixga ega bu o‘lkaning tarixi boshqa qadimiy o‘lkalar singlari jahonda tanilgan ham arxeologik qazishma manbalar turi, ham yozma manbalar turi bo‘yicha ham bizda sonsiz materiallar mavjud. XIX asrda dunyodagi vaziyatga hamohang ravishda o‘lkamizning bevosita siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va madaniy jarayonlar jamiyat hayotiga oid tarixiy hujjatlar va ma’lumotlarni aks ettiruvchi manbalar turining yanada boyishiga olib keldi. Yozma manbalar turi kengayib, toshbosma kitoblar, davriy matbuot, arxiv hujjatlari, kartografik tasvirlar, qayd daftarlari kabi yangi hujjatlar turkumi yaratildi, bu esa, o‘z navbatida, mintaqasi ijtimoiy tarixini yanada chuqur va keng tadkiq etish imkoniyatini yaratdi. Aynan shu davrga kelib, tarixiy izlanishlar olib borish ishtiyoqida bo‘lgan tadqiqotchilar ommaviy kutubxonalar, muzeylar va davlat arxivlari kabi muassasalarni ochish va ularni manbalar bilan boyitish yo‘lida xizmat qildilar. Bugungi kunda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, O‘zbekiston Milliy arxivi va O‘zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasi kabi respublikadagi yirik ilmiy maskanlarda, balki viloyat muzey, kutubxona, arxiv va boshqa fondlarda XIX-XX asr boshi tarixini aks ettiruvchi bebaho yozma manbalar, xususan, tarixiy hujjatlar bilan boyib yetibdi.

Adabiyotlar tahlili va metodi. Tarixiy manba turlarining ko‘payib borishi bilan manbashunoslik yo‘nalishlari ham kengayib, XX asrning 30-yillardidan Markaziy Osiyo tarixini yorituvchi sharq tillaridagi manbalar va arxiv hujjatlarini o‘rganish masalasi ko‘tarildi. Arab imlosidagi arxiv hujjatlarining ochilishi bilan yangi mahalliy manbalarni o‘rganish faollashdi. Qozilik hujjatlarini tadqiq etishni M.Izakson [1] va I.Pervishev [2] lar boshlab berdilar. Jumladan, M.Izakson 1930-yilda Toshkent Markaziy tarix arxivni (hozirda O‘zbekiston Milliy arxivi) saqloviga qabul qilingan qozilik hujjatlarining to‘liq tavsifini berish bilan birga, tadqiqotchilarni ulardan foydalanishga chaqirgan. I.Pervishev esa mahalliy tilda yozilgan hujjatlarni o‘rganish masalasini ko‘targan.

Aslida XX asrning boshida jadid bobolarning davriy matbuotdagi nashrlarini chuqur tahlil qilinadigan bo‘lsa, ilmiy-ommabop nashrlari qatorida, hujjatshunoslikka doir ularning gazetalarida ham tarixiy hujjatlarni tadqiqiga bag‘ishlangan yangi ilmiy yondashuvlarga doir qarashlar va nazariy masalalarga kirish va muqaddima ularoq ayrim

ishora va e'tiborlarini kuzatish mumkin. Bunga 1913-yildagi Mahmudxo'ja Behbudiyning "Oyina" jurnalidagi bir necha sonida takroran "Ulug'bek rasadxonasi haqinda" degan maqolasi ruknida nazariy masalalar tahlilini zikr qilish kifoya.

1937-yilda taraqqiyparvar A.Fitrat rus olimi B.Sergeyev bilan hammualliflikda XVI asrga oid Samarqand qozikaloniga tegishli 735 ta qozilik hujjatlarini aniqlab, ilk bor hujjatlar to'plamini nashr etganlar [3]. Mazkur holat islom qonunchiligi talablari asosida yaratilgan qozilik hujjatlarini ilmiy muomalaga kiritish jarayonini bir oz jadallashtirdi. Qozixonalarda rasmiylashtirilgan "vasiqa" turidagi notarial hujjatlar alohida to'plam yoki katalog shaklidagi hujjatlarning birlamchi sharhlari nashr etildi [4].

Zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan oxirgi 20 yil ichida olib borilgan izlanishlarda mahalliy qozilarning mustamlaka davrida olib borgan ish yuritishini o'rganish, xususan, qozilar rasmiylashtirgan qayd kitoblari Usmoniyalar imperiyasidagi sijjilotlar kabi o'lka qonunchilik tarixini o'rganishda bebafo ahamiyatga ega, deb baholanadi [5].

Mustaqillik yillarda tarixiy manbalarni xolisona tadqiq etish va tarixni haqqoniy baholash davr taqozosiga aylanishi bilan qozilik hujjatlar manbashunosligida yangicha yondashuvlar shakllandı, bu yo'nalishda ilk yangi tadqiqotlar yuzaga keldi va hujjatlar nashri yo'lga qo'yildi.

Qozixona hujjatlarini nashrga tayyorlash bo'yicha ham bir qator yangi izlanishlar nashr etildi. Rus tadqiqotchisi P.P.Litvinov Rossiyadagi tarixiy hujjatlar saqlanuvchi yirik arxivlardan Turkistonda davlat va islom tarixi mavzusida hujjatlar to'plamini nashr etib, unga kiritilgan vaqf hujjatlarida qozilik hujjatlarining bir turi xususida baho berish imkoniyati mavjud [6].

2001-yilda bevosita qozilik hujjatlariga bag'ishlangan katalog nashr etildi [7]. Mazkur ilmiy nashriga 1765-1924-yillarga oid 1713 ta Xiva qozilik hujjatları kiritilib, ulardan 29 tasining faksimilesi e'lon qilingan. Hujjatlar xonlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot va qiziqarli etnografik ma'lumotlarga (qabilalarning nomlari, kiyim-kechak, mato turlari, ayollar taqinchoqlari, uy-ro'zg'or anjomlari)ga boy bo'lib, tadqiqotchilarga Xorazm moddiy madaniyatini tarixiga oid izlanishlar olib borishda yordam beradi.

2007-yilda O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti ilmiy jamoasi tomonidan qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan tarixiy yorliqlar katalogi nashr etilgan [8]. Mazkur to'plamga 122 ta yorliqning ilmiy tasnifi kiritilib, 780/1378-1379-yillardan, to XX asrning birinchi yarmigacha chiqarilgan farmon va yorliqlar, katalogda uchragan joy nomlari, ism va atamalarning izohli ko'rsatkichlari va terminologik glossariylar ham kiritilgan.

Shu yili sharqshunos E.Karimov tomonidan XVII-XX asr boshiga oid Xiva xonligi yuridik hujjatlarini va yorliqlarining ro'yxati e'lon qilinib, 65 ta qozilik hujjatlarining faksimilesi va ularning tarjimasini nashr qilgan [9].

2009-yilda bevosita tadqiqot mavzuimizga aloqador bo'lgan Toshkent shahrining Sebzor dahasi qozisi hujjatlarini to'plami nashr etilgan [10]. Unga 1869-1892-yillarga oid 180 dona qozilik hujjatlarini o'zbek tilidagi batafsил tavsiflari bilan kiritilgan.

2014-yilda mazkur davrga oid manbalar ko'lami, turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etish maqsadida vatan tarixshunosligida ilk xrestomatiya [11] chop etilib, unga Toshkent qozilik hujjatlarini ham kiritilgan.

2016-yilda nashr etilgan Ko‘kcha dahasi qozilik hujjatlari to‘plamiga O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 500 ga yaqin ko‘rilgan ishlarining qayd daftari kiritilgan [12].

Bundan tashqari tarixiy tarixiy manbalarni o‘rganish uchun bugungi kungacha yozilgan darslik, o‘quv qo‘llanma va risolalarni ham zikr qilish zarurki, ular ham bu yo‘nalishda kadrlar tayyorlash va soha uchun yetakchi mutaxassislar hozirlashga muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, B.Axmedov, A.Habibullayev, A.Madraimov, G.Fuzaylova, O‘.Sultonov, H.Aminov, N.Nasrullahayev, S.Shadmonova kabi ustozlarning bu sohadagi nashrlari muhimdir.

Umuman olganda, yuqorida qayd etilgan akademik nashrlar qozilik hujjatlari ham tarixiy yozma manbalar singari rivojlanib kelayotgan manbashunoslik yangi tadqiqotlarga mavzu bo‘la oladigan istiqbolli yo‘nalish ekanligini ko‘rsatmoqda. Bunday tadqiqotlar qozilik hujjatlarini mazmunan tahlil etish, tizimlashtirish, turli jamg‘armalardagi hujjatlar monitoringini yaratish, o‘zaro qiyoslash orqali yangi ma’lumotlarni aniqlash, ularning manbaviy ahamiyatini taqqoslash va shu orqali islomshunoslik, manbashunoslik va tarix fanlarini yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Natijalar. Tarixiy hujjatlarni manba sifatida o‘rganishning ayrim nazariy masalalari qatorida qozilik hujjatlarini o‘rganishda quyidagi tartibdagi nazariy masalalarni bayon etish mumkin:

- 1) hujjatlarni tasniflash tamoyillari;
- 2) hujjat obyekti muammolari;
- 3) hujjatlarni o‘rganish masalalari;
- 4) tahlil qilish uchun hujjatlarni tanlab olish tamoyillari;
- 5) hujjat formulyari tahlili;
- 6) hujjatlarning amaliy tahlili.

Nazariy manbashunoslikda tadqiqotlar asosini tashkil etuvchi turli xil manbalarni tanqidiy tahlil etishda tarixiy voqealarning aks etishi, hujjatlarni tuzishdan ko‘zlangan maqsad, uning yaratilish tarixi, muallifning ma’lumotlarni yoritishdagi subyektiv qarashlarini aniqlash muhim sanaladi.

XX asrning ikkinchi yarmida professor O.D. Chexovich O‘rtta Osiyodagi arab alifbosida yozilgan tarixiy hujjatlarning diplomatikasini o‘rganib, uni rivojlantirish masalasiga alohida to‘xtalib o‘tgan. Jumladan, u mavjud turli xil arxiv fondlari va kolleksiyalarni hisobga olish, ta’riflash, ularning katalogini yaratish, turli xil hujjatlarning shakllanish tarixi va tarkibiy tuzilishidagi o‘zgarishlar sabablarini o‘rganish, ularni nashr etish qoidalarini ishlab chiqish, paleografik, matnshunoslik, sfragistik tadqiqotlarni amalga oshirish va tizimli ravishda hujjatlar to‘plamini nashr etish dolzarbligini qayd etgan. Olima turli xil yuridik hujjatlar va qayd daftarlarini tadqiq etish orqali yangi ijtimoiy, iqtisodiy va geografik ma’lumotlarni aniqlash mumkinligini alohida ta’kidlagan [13].

Shu o‘rinda Buxoro amirligi tarixiy hujjatlarini o‘rganish, ularni nashr etish bo‘yicha tajribali mutaxassis B.Kazakov tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlar [14]ni alohida qayd etish joiz. Muallif, o‘z ishida shaxslarga tegishli yuridik hujjatlarni ijtimoiy funksiyasiga ko‘ra, 8 ta turga ajratadi: 1) vasiqai bayi bot (oldi-sotdi hujjati); 2) xatti ijara; 3) vasiqai baxshish; 4) vasiqai bayi joiz; 5) xatti nikoh; 6) vaqfnomalar; 7) vasiyatnomalar; 8)

xatti ibro. Muallif har bir hujjatning tarkibiy tuzilishi, tarixi va maqsadini aniqlash borasida nazariy usullarni bayon etgan [15].

Hujjatlar ustida ish olib borganda, aniqrog‘i, undan biron narsani bilib olish uchun ishlash jarayonida faqat bir hujjat bilan qanoatlanmasdan, o‘xshash bir necha hujjatni qo‘shib o‘rganish, imkon topib manbalarning boshqa turlari (qo‘lyozma asarlar, tarixiy va jug‘rofiy mazmundagi kitoblar, davriy matbuot materillari va h.k.) bilan solishtirib o‘rganish zarur. Chunki bir hujjatda faqat bir kelishuv yoki faqat bir fakt xususida gap boradi. Shu yo‘l orqali tadqiqot olib borilayotgan mavzu bo‘yicha keng doiradagi asosli bilimlarga ega bo‘lish mumkin. Bunda qozilik hujjatlari ustida ishlashning bosqichlarida manbalarni turlariga qarab klassifikatsiya qilish tamoyiliga tayanish to‘g‘iroq bo‘ladi. Chunki boshqa turdagи hujjatlarni jalb etmasdan, birgina qozilarning qarorlar kitoblarini o‘rganish orqali yaxlit tarixiy jarayon yoki voqealarga xolis baho berish mumkin emas.

Tadqiqotning birinchi bosqichi mavzuga doir manbalarni aniqlash, izlab topish, tanlash va nihoyat uni ilmiy tahlil qilishdan boshlanadi. O‘rganilayotgan mavzuning ilmiy va nazariy jihatdan to‘g‘ri va puxta bo‘lishi ko‘p jihatdan tanlangan manbalarning mazmuni, sifati va salmog‘iga, ya’ni to‘la-to‘kisligi, faktik materialga boyligi, bo‘lib o‘tgan voqeani to‘g‘ri yoritilishiga ham bog‘liq [16].

Shu bilan birga, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshiga taalluqli qozilik manbalari nihoyatda keng va turli mazmunga egaligi bilan ajralib turadi. Ayni paytda, bu davrda manbalarning mazmuni va g‘oyaviy asoslari ham turli-tuman bo‘lib, bunday holat tadqiqotchilar zimmasiga masalaga atroflicha hamda tanqidiy, manbalarga esa qiyosiy yondashish mas’uliyatini yuklaydi.

Bundan tashqari, mazkur davrga oid tarixiy ma’lumotlarning katta qismi arab alifbosida (fors va o‘zbek tillarida) bo‘lganligi bois, tadqiqotchilardan qo‘shimcha bilimlar talab qilinadi. Shu bois, ularning ko‘p qismi hali ilmiy muomalaga kiritilmaganligi tarixiy manbashunoslik yo‘nalishini rivojlantirishni taqozo etadi. Zero, aynan shu sababli mustamlaka davriga oid mahalliy hujjatlarning aksariyati tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolmoqda. Vaholanki, bu kabi hujjatlarda o‘tmishning ilgari kam o‘rganilgan, ijtimoiy madaniy hayotning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan ma’lumotlar o‘rin olgan.

Umuman olganda, har bir qo‘rilgan ishni bayon etishda qozi aniq bir formulyarga rioya qilgan holda qayd etib borgan. Jumladan, hujjat tegishli bo‘lgan shaxsning ismi sharifi (da’vogar, javobgar), yashash joyi, chegara hududlar, mahalla nomi, bolaning ismi, yoshi, jinsi, otasining ismi sharifi va bevosita guvohlar to‘g‘risida ma’lumotlar kiritilgan. Hujjatda keltirilgan pul mablag‘i, mol-mulki aniq ko‘rsatilib, uni qanday taqsimlanganligi so‘m va tiyinigacha aniq miqdori ko‘rsatib berilgan. Agar biror ko‘char (uy anjomlari, kiyim-kechak, matolar), ko‘chmas mulk (hovli joy, yer, bog‘ va boshqa narsalar) meros kolgan bo‘lsa, ular ham tavsiflab o‘tilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda tarixyi hujjatlar manbashunosligi tadqiqotlarning nisbatan yangi va yosh yo‘nalish bo‘lib, uni rivojlantirish borasida katta imkoniyatlar mavjud. Shu bilan birga, bir qator ilmiy vazifalar o‘z yechimini kutmoqda. Bu hujjatlarning turli fanlararo qiyosiy tahlil etilishi O‘zbekiston tarixini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Qozilik manbashunosligi yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarning muammolaridan yana biri – fanlararo yondashuv va hujjatlar integratsiyasi masalasi bo‘lib, bu aksariyat hollarda viloyat muzey, kutubxona va arxivlaridagi

manbalarning tadqiqot doirasidan chetda qolayotganligidir. Tadqiqotchilar ushbu manbalarni Toshkentdagи markaziy hujjatlar to‘plamlari bilan uyg‘unlikda o‘rganmayotganligi namoyon bo‘ladi. Qozilik hujjatlarini o‘rganishda mavzuli yo‘lko‘rsatkichlar, kataloglarning ahamiyati beqiyos bo‘lib, ularning elektron nusxasini yaratish katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada, ayniqsa, respublika arxivlaridagi manbalarning muammoviy yoki aniq yo‘nalishlar bo‘yicha kataloglar, yo‘lko‘rsatkichlar chop etish, arxivlarning rasmiy internet sahifalarini axborot resurslari bilan boyitish, arxiv manbashunosligini takomillashtirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Изаксон М. Национальные фонды Центрального архива УзССР в Ташкенте. // Библиография Востока. – Ленинград, 1932. – №1. – С. 55-72.
2. Первышев И. О документальной базе для историографии феодальной формации в Средней Азии. // Революция и культура в Средней Азии. Сборник первый. – Т., 1934. – С.106-111.
3. Фитрат Р. Р., Сергеев Б. Казийские документы XVI века. Ташкент: Комитет науки УзССР, 1937. – С. 80.
4. Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. Исследование и описание документов с историческим введени-ем. – Л., 1940; Унинг ўзи. Хозяйство джуйбарских шейхов. / К истории феодального земледелия в Средней Азии в XVI – XVII вв. – М. - Л., 1954; Чехович О.Д. Бухарские документы XIV в. – Т., 1965; Унинг ўзи. Самаркандинские документы XV-XVI вв. – М., 1974; Документы архива хивинских ханов по истории и этно-графии каракалпаков. / Подбор документов, введение, перевод, примечания и указатели Ю.Э. Брегеля. – М.: Наука, 1967; Троицкая А Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – М.: Наука, 1968.
5. Sartori P. Colonial Legislation Meets Sharī‘a: Muslims’ Land Rights in Russian Turkestan // CAS 29/1, 2010. – Р. 43-60; Унинг ўзи. Constructing Colonial Legality in Russian Central Asia: On Guardianship // CSSH 56/2, 2014. – Р. 419-47.
6. Литвинов П.П. Государство и ислам в Русском Туркестане (1865-1917) (по архивным материалам). – Елец: ЕГПИ, 1998. – 320 с.
7. Каталог хивинских казийских документов XIX – начала XX в. / Составители. Урунбаев А, Хорикава Т., Файзиев Т., Джураева Г., Исогай К. – Ташкент; Киото, 2001. – С. VIII – IX.
8. Каталог среднеазиатских жалованных грамот из фонда Института востоковедения им. Абу Райхана Беруни Академии наук Республики Узбекистан / Составители Урунбаев А., Джураева Г., Гуломов С. Халле (Заале), 2007. – 314 с.
9. Каримов Э. Регесты казийских документов и ханских йарлыков Хивинского ханства XVII – начала XX в. –Т.: Фан, 2007. – 223 с.
10. Каримов Ф., Сартори П., Зиёдов Ш. Себзор даҳаси қозиси фаолиятига оид ҳужжатлар. –Т.: Ўзбекистон, 2009. – 176 б.
11. Ўзбекистон тарихи хрестоматияси. (1860-1917). IV жилд. (Лойиха раҳбари ва маъсул муҳаррир т.ф.д., проф. Зияева Д.Х.). – Т., 2014.
12. Аминов X., Султонов Ў. Колониал Туркистанда қозилар дафтари: Тошкент, 1887. – Тошкент: Наврӯз, 2016. – 336 б.

13. Чехович О.Д. Задачи среднеазиатской дипломатики // Народы Азии и Африки. – М., 1969. – № 6. – С. 75-82.
14. Казаков Б.А. Документальные памятники Средней Азии. – Ташкент: Узбекистан, 1987. – 87 с.; Kazakov B. Bukhara Documents. The collection in the District library, Bukhara. Translated from the Russian by J. Paul. Anor, Berlin, 2001.
15. Казаков Б.А. Документальные памятники Средней Азии. – Т.: Узбекистан, 1987. – С. 25.
16. Shadmanova S. Tarxiy tadqiqotlarning metodologiyasi va zamonaviy usullari. – Т.: Barkamol fayz media, 2018. – В.85–87.

ИЗУЧЕНИЕ ГЕОГРАФИИ И ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ В ТУРКЕСТАНОВЕДЕНИИ КОНЦА XIX –НАЧ. XX ВВ

Пуговкина Оксана Геннадьевна

Dsc, с.н.с. Национальный центр археологии АН РУз

«Эти люди... или тропой бескорыстной любви к новым знаниям, “не требуя ни мест, но повышенья в чин”, щедро отдавая себя, свою любовь к природе, к неизведанным геологическим, археологическим, историческим, этнографическим, ботаническим открытиям”. Ради познания они рисковали жизнью. Их экспедиции привносили ... бесценные свидетельства об этносах, населявших эти края, об их культуре, о ранее неизвестных геологических структурах, о флоре и фауне этих мест».

[Русские исследователи Центральной Азии и Казахстана. – Алматы, 2009. С. 7.]

В деле изучения природы и географии Средней Азии второй половины XIX – начала XX века ведущую роль сыграли российские военные и чиновники, прибывавшие в Туркестанский край. Вместе с движением Российской империи вглубь Средней Азии шло постепенное исследование и описание ее территорий. Российскими военными были изучены не только военные и стратегические возможности новых среднеазиатских владений, но и собраны богатые материалы по описанию природы, географии, геологии, климата, флоры, фауны, истории, этнографии местных народов.

С этой целью изучение новых территорий осуществлялось двумя направлениями: академическим, представленным крупными научными учреждениями и именитыми учеными Санкт-Петербурга, Москвы и Казани – Н.П. Лерхом, Н.И.Веселовским, В.В.Григорьевым, А.Л.Куном, В.В.Бартольдом, С.Ф. Ольденбургом и др. и, практическим, у истоков которого стояли зчинатели нового научного направления в российском востоковедении, получившего название *российское Туркестановедение*. Это были чиновники Туркестанской администрации, офицеры Генерального Штаба, участники различных посольств и миссий, члены научных обществ или их филиалов, агрономы, инженеры, экономисты, путешественники, учителя. Они, совмещая свои непосредственные служебные обязанности, находили время и для научной, и исследовательской деятельности.

tarixshunoslik talqini.....	
23. <i>Sattorov Nurbek.</i> Amir Temur va temuriylar davridagi etnik jarayonlar.....	109
24. <i>Ulashova Sevinch.</i> Manbalarda Chig‘atoy shahzodasi yasovur o‘glon nomi bilan bog‘liq ma‘lumotlar.....	113
25. <i>Badalov Azizbek.</i> Sharqona ahloq dasturi.....	118
26. <i>Allayeva Nigora.</i> Fors manbalarida XVI asr Xiva xonligi tarixining yoritilishiga doir.....	121
27. <i>Sangirova Dilorom.</i> Ilk ashtarkoni hukmdorlarining safaviylar bilan siyosiy aloqalari.....	127
28. <i>Ruzmatova Shaxodat.</i> Qo‘qon xonligi aholisi ijtimoiy stratifikatsiyasi.....	131
29. <i>Nuridinov Turdali.</i> Qo‘qon xonligining sug‘orish tarmoqlari.....	135
30. <i>Musayev Azizbek.</i> “Bahr ul-asror fi manoqibi ul-ahyor” asarida Farg‘ona vodiysi tarixini o‘rganishda muhim manba.....	137
31. <i>Davurova Shohida.</i> Buxoro amirligi ichki savdosi va bozorlar faoliyati.....	142
32. <i>Бабаджанов Бахтиёр.</i> Суфизм и «анти-суфизм» в журнале «Ал-ислах» (1915-1918).....	147
III Sho‘ba. Sharq mamlakatlari hamda O‘zbekiston tarixining manbashunosligi va tarixshunosligi	
33. <i>To‘pchiyev Usmon.</i> O‘zbekiston uzumchiligi tarixi tarixshunosligi.....	159
34. <i>Xidirova Nargiza.</i> Xiva xonligida yuqori tabaqaga mansub ayollar: ma‘lumot va tahlil.....	163
35. <i>Xolov Vohid.</i> Xivada ta’lim va ta’lim muassasalari faoliyatining XIX – XX asr boshlari ingliz tilli asarlarda yoritilishi.....	166
36. <i>Xakimova Saida.</i> XIX asr mahalliy manbalarida markaziy Osiyo suv havzalari haqidagi qaydlar.....	169
37. <i>Ismatova Nargiza.</i> Buxoro amirligi vaqf mulkchiligin yoritishda tarixiy asarlarning ahamiyati.....	172
38. <i>Mirzayev Nasriddin.</i> Tarixiy hujjatlarni manba sifatida o‘rganishning ayrim nazariy masalalari.....	176
39. <i>Пуговкина Оксана.</i> Изучение географии и природных ресурсов средней азии в Туркестановедении конца XIX – нач. XX вв.....	182
40. <i>Saidov Shavkat.</i> XIX asr va XX asrning birinchi choragida Xorazm va Rossiya imunosabatlarini sovet davrida tadqiq etilishining ilmiy-nazariy jihatlari.....	186
41. <i>Bobojonov Shavkatjon.</i> Sadreddin Ayniy “esdaliklari”da Buxoro hunarmandchiligi an’analari.....	191
42. <i>Amonova Feruza.</i> Turkiston mintaqasida tibbiy xizmatlar bozorini tashkil etishning zamонавиј тahlili.....	194
43. <i>Mingnorov Abduxoliq.</i> Turkiston milliy matbuotida milliy demokratik davlatchilikni tuzish va mustahkamlash masalalarining yoritilishi.....	197
44. <i>Yo‘ldashev Abduvali.</i> “Sovg‘a” alifbo kitobi tarixi va tahlili.....	201
45. <i>Rajabov Qahramon.</i> Turkiston mintaqasida sovet rejimiga qarshi istiqlolchilik harakati tarixining manbashunoslik masalalari tahlili.....	205
46. <i>Tog‘ayeva Anora.</i> SSSRda islom: xorij manbalaridagi tahlil va talqin.....	215
47. <i>Махкамова Надира.</i> Отражение вопросов национальной политики советской власти в 20-30-е гг. XX в. в советской историографии.....	219